

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta
maxsus ta`lim vazirligi**



**Samarqand Davlat Universiteti
Tarix fakul'teti 101-Tarix guruhi
talabasining**

”IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI”

fanidan yozgan

KURS ISHI

**Mavzu: *“Ibtidoiy jamiyat tarixini
davrlashtirish va sanalashtirish”.***

Topshirdi:

Aktamova M

Qabul qildi:

Ergashev O.

Samarqand 2012 yil.

**MAVZU: IBTIDOIY JAMIYAT TARIXINI
DAVRLASHTIRISH VA
SANALASHTIRISH**

REJA :

I. KIRISH

Ibtidoiy jamiyat tarixi.

II. ASOSIY QISM

*1. Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish
masalasi.*

*2. Ibtidoiy jamiyat tarixini ijtimoiy
munosabatlarga qarab davrlashtirish.*

*3. Ibtidoiy jamiyat tarixini, sanasini aniqlash
usullari.*

III.XULOSA

*Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lib
o'rganishning ahamiyati.*

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mashhur tarixchi olimlarining aytganidek biz uchun hamma narsadan ham muhim va yuksak bo'lgan tarix fani kishilik jamiyati uning rivojlanish qonuniyat haqida bahs etadi. Jahon xalqlari tarixi muqarrar ravishda biri ikkinchisi bilan almashinuvi 5 ta tarixiy davrga bo'linadi. Ular:

1. Ibtidoiy jamoa
2. Qadimgi
3. O'rta
4. Yangi
5. eng yangi tarixiy davrlardir

Ularning eng dastlabkisi Ibtidoiy jamoa tuzumi hisoblanadi. U yer kurrasida odamzod paydo bo'la boshlagan vaqtdan boshlab Ibtidoiy gala, urug', urug'chilik tizimining vujudga kelishi, urug'chilik tizimining yemirilishi, mulkiy tengsizlik tabaqalar va davlatning kelib chiqishigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Ibtidoiy jamiyat tuzimi o'zidan keyingi barcha davrlarga nisbatan mehnat qurollarining soddaligi binobarin ishlab chiqarish kuchlarining nihoyat darajada past bo'lishi bilan belgilanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzimi davrida ayniqsa urug'chilik tuzimigacha bo'lgan davrda odamlar tosh, yog'och, suyak va boshqa buyumlardan yasalgan juda soda qurollarga ega edilar. Ular yerda mavjud bo'lgan narsalarni terib yeb, ovchilik va termachilik bilan kun ko'rganlar. Keyingi 40-50 yil ichida arxeolog olimlar Afrika, Osiyo, Yevropa va Yer kurrasining boshqa joylaridan ibtidoiy kishilarning juda ko'p makon va

manzillarini kavlab ochishga muvaffaq bo'ldilar. Arxeologik qazishlar natijasida mazkur manzilgohlardan kishilikning eng qadimgi tosh asriga mansub bo'lgna ko'plab tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan oddiy, sodda qurollar hamda ularning ayrim siniq parchalari topilgan.

Ibtidoiy jamoat tuzimi davrida ayniqsa uning dastlabki bosqichlarida odamlar yasab foydalangan mehnat qurollari shunchalik sodda ekan. Bu ularning mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasining nihoyat darajada past bo'lganligidan darak beradi.

Demak mehnat qurollari hilining ozligi, ularning soddaligi, qurol yasash texnikasining rivojlanmaganligi o'z imkoniyatlarini bilmaslik ibtidoiy kishilarning tabiat oldida unda ro'y beradigan turli – tuman dahshatli tabiiy hodisalar oldida ojiz va himoyasiz qilib qo'ygan edi. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzimining davridagi odamlarning yakka tartibda yashab, kun kechirishlariga binobarin tabiatdagi hilma-xil hodisalarga qarshi ayrim holda kurashlariga sira ham imkon bermas edi. Insonni bu dahshatli kuchlardan, azob-uqubatlardan faqat mehnat shunda ham umumlashib, qilingan ijtimoiy mehnat qutqara olar edi xolos. Ibtidoiy kishilar birgalashib mehnat qilishlari natijasidagina qadamba-qadam tabiatning dahshatli kuchlarini yenga boradilar. Ibtidoiy davr kishilari o'sha vaqtlarda birgalashib, mehnat qilmaganlarida ular qurshovida yashay olmay, mazkur hayvonlarga yemish bo'lib, yer yuzidan yo'q bo'lib ketar edilar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ular umumlashib, yashash va mehnat qilishlari tufayligina yovuz kuchlardan g'olib chiqdilar.

Demak o'sha davrdagi shart-sharoit Ibtidoiy kishilarni birgalashib, mehnat qilish va yashashga majbur etdi.

Birgalashib mehnat qilish, yashash, ishlab chiqarish vositalari hamda iste'mol mahsulotlarining hamma uchun umumiy mulkka aylantirgan edi.

Umummehnnati natijasida qo'lga kiritilgan oziq-ovqat va boshqa iste'mol buyumlari u yoki bu guruxda yashagan barcha katta-kichik kishilar orasida barobar taqsimlanar edi.

Ibtidoiy kishilar tomonidan qo'lga kiritilgan is'temol buyumlari o'rtada bo'lib, hammaga barobar taqsimlanar edi. Lekin umumiy mulk bilan bir qatorda kishilarning shahsiy buyumlari ham bo'lgan. Kiyim – bosh jangovar ov va ba'zi ishlab chiqarish qurollari shular Ibtidoiy jamoa tuzimi davrida noz-ne'matga hammaning egalik qilishi tenglik mavjud edi. Unda hususiy mulk ham kishi tomonidan ekspluotatsiya qilish ham qabiladan alohida ajralib turuvchi zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat ham yo'q edi.

Ibtidoiy jamoa tuzimi tabaqasiz va davlatsiz jamiyat edi. XIX va XX asrning mashhur tarixchilari bu eng dastlabki davrga baho berib, uni hamma barobar teng bo'lgan Ibtidoiy davr deb tariflagan edilar. Ibtidoiy jamoa tuzimining huddi shu eng muhim hususiyati ham bilish, ham dunyoqarash jihatdan juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Ibtidoiy jamiyat tarixining dalillari xususiy mulk ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatining kelib chiqishining tub mohiyatini bilib olishga imkon yaratib berdi. Darhaqiqat tabaqalar davlat hokimiyati tizimi va qismlari hech qachon azaldan mavjud bo'lgan emas. U Ibtidoiy jamoa tuzimining yemirilishi natijasida vujudga kelganligini olimlar tomonidan isbotlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzimi kishilik tarixining eng dastlabki, eng oddiy shakli edi. Lekin u bir yerda qotib qolmadi. Oddiylikdan murakkablik sari qadam qo'ya borib, keyingi davr uchun olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p kashfiyotlarning poydevor toshini yaratdi. Insoniyatning iqtisodiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik shakllari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, arxitektura, savdo va dastlabki almashuv munosabatlari ibtidoiy jamiyat

tarixi zaminida shakllanadi va rivojlana brogan. Bu hol ibtidoiy davrdan so'ng yashagan avlod uchun benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ibtidoiy jamiyatning rivojlanish tarixi albatta, bir qancha bosqich yoki davrni bosib o'tgan. Kishilik jamiyati tarixi shu jumladan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lmay turib, o'rganish mumkin emas. Davrlashtirishda tarixiy jarayon, zamon va davrlarga bo'linib, ular muhim voqealar bilan bir-birlaridan ajraladi. Tarixni xususan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish juda murakkab bo'lib, xali bu ilmiy jihatdan nihoyasiga yetgani yo'q. kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish qadimgi dunyodayoq boshlangan edi. Eramizdan avvalgi I asrda yashagan Rim faylasufi Lukretsiy Kar o'zining “Narsalarining tabiati” nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini tosh qurollarining mis qurollar bilan undan so'ng temir qurollar bilan almasha borganini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutib yuborilgan. Shatlandiyalik faylasuf Adam Fergyussion , kishilik tarixini 3 davrga: yovvoyilik, varvarlik, madaniylashgan davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan. Arxeologiyalar ibtidoiy davr kishilarida qolgan moddiy va madaniy buyumlarni o'rganish asosida kishilikning ibtidoiy tarixini 3 davrga:

Tosh

Bronza (yez)

Temir asrlariga bo'ladilar. Tosh asri esa o'z o'rnida yana qadimgi va yangi tosh davrlarga bo'linadi. Qadimgi tosh asri qazilma odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda yerning iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqlangan tosh qurollar va sopol idishlarni bilmaganlar va yog'ochdan tayyorlangan so'yil va oddiy tosh qurollardan foydalanganlar. Qadimgi tosh asri kishilari ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. Baliqchilik esa endi shakllana boshlagan bo'lib, ular

dehqonchilik va chorvachilikdan mutlaqo habarsiz edilar. Kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini o'z ichiga qamrab olgan. Tosh davri 2 bosqichga: eng qadimgilar (quyi, ilk) va keyingi (yuqori) tosh asrlarga bo'linadi. Eng qadimgi tosh asri olduvay [ashelgacha] Qadimgi Ashel, keyingi va o'rta Ashel hamda Muste davrlarga bo'linadi.

Uning eng quyi sanasi 3,5,3 mln, yuqorisi esa 100+35 ming yilga kelib taqaladi. Madaniyatning eng oddiy bosqichi Shell madaniyatidir. Bu Shimoliy Fransiyadagi Shell, shaharchasi nomi bilan atalgan.

Bu davr madaniyati qurollarining asosiy tur uzunligi 10 sm dan 20 sm gacha og'irligi 500 gr dan 1 kg gacha bo'lgan anchagina katta hajmli bodom shaklidagi, har ikki tomoni tosh bilan qo'pol qilib tarashlangan tosh bo'lagidir. Bu qurol "Qo'l chopqichi", "chopqichi" yoki "Qo'l boltasi" deb ataladi. Bu qurollarni qo'lga qulay bo'lishi uchun ularni yo'g'on orqa tomoni "Tovon" deb ataluvchi silliq sathga ega bo'ladi. Shell chopqichi ehtimol barcha ishlarda ham uruvchi, kesuvchi ham o'yuvchi va ayni bir vaqtda ir iritish quroli bo'lib xizmat qilgan bo'lsa kerak. Shell bosqichida chopqichdan tashqari tarashlangan toshlardan ishlangan. Boshqa oddiy qurollar ham bo'lgan Obsidian va Baraltdan ishlangan shell qurollari sovet arxeologiyalari S.M. Sarderyan va M.Z. Panichkinalar tomonidan 1947-1948-yillarda Armanistonning Bog'utlu tog'ida, Araga tog'ining g'arbiy-janubiy, yonbag'rida, xususan, "Saltani Dar" (Shaytontepa) deb atalgan tepalikdan topilgan shell davridagi manzillar juda qadimgi davrga oid bo'lgani uchun ulardan topilgan qo'lqurollar odatda o'sha davr odamlari qoldirgan holatda yotmaydi. Shell qurollari birinchi marta joylashgan vaqtdan beri yer o'rnini almashtirgan va boshga ta'sirlarga uchragan. Shuning uchun arxeologlar umumiy qoidaga ko'ra, tom ma'noda shell odamlari yashagan manzilni emas, balki ayrim buyumlarnigina topadilar. Ilk kishilikning navbatdagi harbiy bosqichi Yevropaning ko'pgina yerlarida va shuningdek, Afrika va Osiyoda ma'lum bo'lgan va bir umumiy nom bilan Ashell madaniyati

deb ataladigan yodgorliklardan ibiratdir. Bu madaniyatning harakterli quroli shell davri qurollaridan hech farq qilmaydi, biroq unga qaraganda hajmi bir muncha kichik, shakli ancha to'g'ri, o'tkir qirralik, ko'ndalangligiga yozib, "Retush" deb ataladigan usulda ancha yaxshi ishlangan. Shell manzaralarida bo'lgani kabi, Ashel manzillarida ham, ma'lum tilga uncha xos bo'lmagan mayday tosh qurollar topilgan.

Ashel manzillari shell manzillaridan qurollar bilan farq qilishidan tashqari, yana odamning turmushi va faoliyatini ko'rsatuvchi boshqa belgilar bilan ham farq qiladi. Momo'nt karkida kabi yovvoyi hayvonlarning ko'p suyo'qlari, shuningdek, olov izlari saqlanib qolgan. Garchi kam uchrasa ham Ashel manzillarini qatlami shell manzillari qatlamidan farq qilib, yuvilishi va surilishlariga uchramay bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Shuning uchun ularda u yoki bu buyumlarnigina topib qolmay, balki bu buyumlarning bir-biriga nisbatan qanmday joylashganligini ham anglash mumkin, bu esa o'sha davrda yashagan odamlarning hayot sharoitlarini to'laroq tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Ashel yodgorliklari topilgan bir necha yodgorliklar Armanistonda shell qurollari topilgan o'sha Bog'otli tog'ining o'zi Yerevandan 18 km shimoldagi Arzni qishlog'ida va zaytun tomondan 1934-1938 yillarda Abxayziyada, Qora dengiz qirg'oqlarida topilgan Ashel yodgorliklari shular jumlasidandir, Shimoliy Kavkazda Janubiy Osiyoda, O'rta Osiyoda ham Ashel davri odami yashaganligi ma'lum bo'ldi. Nihoyat biz o'rganayotgan ibtidoiy tarix boshlang'ich davrining 3-bosqichi Muste madaniyatidan iboratdir. Muste madaniyati Fransiyaning janubiy yaqinidagi g'ordan topilgan. Bu madaniyat Ashel madaniyatiga nisbatan ham ancha keng tarqalgandir. Yuqorida aytilgan qrimda "Simferopol" shahari yaqinida neandertal odam topilgan. Kiyikkoba g'ori pllustye madaniyatining Yevropa hududidagi ajoyib yodgorligi hisoblanadi. 1925-1928 yillarda S.N. Kamyatnin. 1936-1937 yillarda V.A.Gorodsov tomondan Kubanda va Krasnadardan 43 km

janubi-g'arbidagi Ilsk stansiyasi yaqinida topilgan manzil mustye madaniyatining ajoyib yodgorligi hisoblanadi. Mustye madaniyatining bunday yodgorliklari O'zbekistonda ham topilgan. O'zbekistonning janubida Boysun tog'idagi bir qancha g'orlar va yuqorida eslatilganidek, neandertalning topilishi bilan bog'liq bo'lgan Teshiktosh shular jumlasidandir. Nihoyat, so'nggi 10 yil ichida Abxaziya, Ukraina va Volgada bir qancha mustye yodgorliklari topildi.

Mustye bosqichi texnikaning sezilarli darajada o'sganligi bilan karakterlanadi. Oldingi bosqichlarga xos bo'lgan chopqich bu davrda kam uchraydi. Shuningdek uning hajmi ancha kichik bo'lib, tuzilishi jihatidan ancha qo'polroqdir. Bu universal qurolni bir muncha ixtisoslashtirilgan qurollar siqib chiqargan deb xulosa chiqarish mumkin. Mustye madaniyatining asosiy quroli uchi o'tkirlangan toshdir. Bu qurolning anchagina takomillashgan shakli nayza sifatida ishlatilishi mumkin edi. Xaqiqatan ham bu davrda yog'ochdan yasalgan otish quroli, masalan, uchiga o'tkir qirrali toshga o'rnatilgan nayza ishlatilgan deb, o'ylash mumkin. Kurakcha ham Mustye madaniyatining shunday asosiy qurollaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda yangi material suyakdan o'tkir uchli mayda qurollar yasaganlar. Mustye manzillaridan odatda yirik hayvonlarni ko'pincha mamontning, so'ngra karkidon, g'or ayig'I, yovvoyi ot, shimol bug'usi va boshqa suyaklari ba'zan ko'p miqdorda topiladi. Nihoyat mustye manzillarida doimo gulxan qoldiqlari biladi. Mustye manzillarida ko'pincha o'sha davrda yashagan odamlarning qoldiqlari ham uchraydi. Bular yuqorida aytib o'tilgan neandertallardir. Shunday qilib mustye madaniyati neandertallar madaniyatidir.

Shell, ashell va mustye madaniyatlari odatda, umumiy nom bilan ilk paleolit deb ataladi. So'nnggi paleolit esa orinyak solyutrey va madleh davrlariga bo'linib 40-35 ming yilliklardan 150-12 ming yilliklargacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

Orinyak – solyutr bosqichi dastlabki insoniyat tarixidagi muhim bosqich hisoblanadi. Orinyak va solyutr madaniyatlari Fransiyadagi 2 ta hududdan topilgan va shu joyning nomi bilan atalgan. Bu madaniyat yodgorliklari butun Yevropadan hamda Afrika va Osiyoning ba'zi joylaridan topilgan.

Sharqiy Yevropa, hududida orinyak, solyutr davriga tegishli bir qancha yodgorliklar bor. Ayniqsa, rus arxeologi P.P. Yefemenko tomonidan Voronej shaharidan 23 km masofada Don daryosi bo'yida topilgan Kostenki manzillari guruhi shu davrning eng mashhur yodgorliklaridandir. Bu davrga xos umumiy buyumlardan va yarim yerto'la turar – joylardan tashqari Kostenki manzillari fil suyagidan va margeldan yasalgan haykalchalar va ayollar shakllarining ko'pchiligi bilan ham ajoyibdir. Shuningdek sovet arxeologi M.M. Gerasimov tomonidan Irkutskdan 80 km narida Anarning Belaya irmog'ining chap qirg'og'ida Malta qishlog'ida o'rganilgan manzil ham ajoyibdir.

Shuningdek, sovet arxeologi M.M.Gerosimov tomonidan Irqutsdan 80 km narida Anarning Belaya irmog'ining chap qirg'og'ida, Malta qishlog'ida o'rganilgan manzil ham ajoyibdir. Bu yerda topilgan tosh plitalaridan va yirik hayvon suyaklaridan qilingan bir necha turar joylarda o'choqlarning izlari, turar joylaridan tashqarida gulxanlarning izlari bor. Maltada ko'p miqdorda tasviriy san'at buyumlari, ayollarning haykallari, hayvonlar, baliq va qushlarning tasviri va shuningdek, taqib yuriladigan bezak buyumlari topilgan. Maltadan 50 km shimolda Angarning o'ng qirg'og'idagi A.T.Okladnikov tominidan topilgan manzil o'z harakteri jihatidan Maltaqa ancha yaqindir. Bu joyda yerga biroz o'yib ishlangan turar joylar topilgan bo'lib, ularda ham yirik hayvonlar suyagidan qurilish materiallari sifatida masalan shimol bug'usi shohidan tom yopishda foydalanilgan. Buretdan topilgan haykalcha ham ajoyibdir. Unda junli kiyim kiygan kishining tasviri mamont tishiga ishlangan. Sibirda esa maydoni ancha tor bo'lgan 3

joyda: Obning boshida Yeniseyning yuqori oqimi va Baykal atrofiga orinyak-solyutr davriga oid bir qancha yodgorliklar topilgan. Arxeolog P.H.Boriskovskiy, geolog V.H.Gromov va boshqalar ularni o'rgangan.

Orinyak-solyutr davri eng avval shu bilan mashhurki, uning manzillarida neandertalga nisbatan ancha taraqqiy qilgan, undan ko'p jihatdan farq qilgan va o'zining barcha fizik belgilari bilan hozirgi zamon odamiga xos qazilma odamlar topilgan. Ularda ko'z kosasi ustidagi qobariq yo'qolgan peshonasi to'g'ri, iyak oldinga chiqib turadi barcha suyak tuzilishi qaddini tik ko'tarib yurganligidan darak beradi. Bosh miya qutisining hajmi taxminan 1400³ sm. Shunday qilib odam tarixida yirik voqea sodir bo'ldi, antropogenez jarayoni odam o'z biologik rivojlanishini tamomladi. Endi bizning oldimizda hozirgi zamon odami yoki antropologlar aytganidek, Homo sapiens "Ongli odam" tashkil topdi.

Bu yangi odamning eng tipik vakillari Fransiyadagi Kramanion (Dordonya) va Italiyadagi Grimaldi g'orlaridan topilgan suyak va bosh suyaklarining umumiy tuzilishi jihatidan Kromanion va Grimaldi kishisi o'zaro o'xshash bo'lsa ham ammo har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Inson tarixida yana bir hodisa yuz berdi - hozirgi zamondagi irqlar paydo bo'ldi.

Bu davrda texnika sohasida mustaqil madaniyatiga nisbatan anchagina o'zgarish ro'y beradi. Eng avvalo toshni ishlash yaxshilanadi, juda oddiy parchalash yoki sindirib olish bilan birga qurolga ancha aniq va mufassal shakllar beruvchi qisib sindirish usuli keng qo'llanadi. Suyak va shoxlardan keng foydalana boshlanadi. Bu davrda yog'och ham keng qo'llanilgan: Orinyak-solyutr manzillarining ko'pida uchraydigan tosh va suyak buyumlarning shakli, ular yog'och dastaga o'rnatilgan qurolarning asosiy qismi bo'lganligidan darak beradi. Bu texnika taraqqiyotida muhim davr edi bir nech qismdan tuzilgan qurol va yarog'larga o'tish davri edi. Bu bosqichdagi manzillardan juda ko'p

miqdorda turli buyumlar topildi. Bu esa ishlab-chiqarishning rivojlanganidan guvohlik beradi. Bu yerda chaqmoqtosh olinadigan va qurollar tayyorlanadigan o'ziga xos "Ustaxonalar" va xususan, go'yo qurol yasash uchun zapas qilib qo'yilgan ko'p miqdordagi mamont tishlari fikrimizning dalilidir. Umuman orinyak-solyutr davrining barcha qurol va yarog'lari mustye davri odamnikiga nisbatan beqiyos boy va hilma-xildir. Haqiqatda faqat umumiy 2 xususiyatga ega bo'lgan mustye quroli turlari o'rniga biz bu yerda endi ixtisoslashgan va ancha xilma-hil qurol va yarog'lar to'plamini ilgariidan saqlanib kelayotgan og'ir tosh keskichdan tashqari, pichoq, nayza va nayzachalar, turli hil keskichlar, qirg'ichlarni ko'ramiz. Bu davr yodgorliklarida suyakdan ishlangan ignalar solingan (qush suyagidan ishlangan) ignadan topilgan. Shu yerdan yana suyakdan ishlangan qarmoq ham topilgan. So'nggi tosh asridan so'ng esa O'rta tosh mezolit asri boshlanib, 12-15 ming yilliklarning orasidagi davrni qamrab oladi. Mezolitdan so'ng tosh asrining so'nggi bosqichi neolit – yangi tosh asri boshlanib, Yevropaning markazi, g'arbi, sharqiy-janubi o'lkalarida Osiyoda uning sanasi 5-3 ming yilliklarga mansubdir. Neolit davridan so'ng eneolit va undan so'ng bronza asri boshlanadi. Eneolit eramizdan avvalgi IV ming yillikka mansub bo'lsa, bronza davri III ming yillik oxiridan eramizdan avvalgi I ming yillik boshlarigacha davom etadi.

Bronza asridan so'ng, Yevropa, Osiyo va boshqa joylarda temir asriga o'tish boshlandi. Ibtidoiy jamiyat tarixini arxeologik jihatdan davrlashtirish mazkur davrning ishlab-chiqarish kuchlarini puxta o'rganish uchun muhim ahamiyatga egadir. Lekin bu masalani oydinlashtirish uchun yetarli emas.

Ayni vaqtda mazkur arxeologik davrlar, yer tarixining geologik bosqichlari bilan zamondosh bo'lishi ham mumkin. Odamning paydo bo'lishi zamonimiz tarixining to'rtlamchi bosqichiga to'g'ri keladi. Geologik jihatdan to'rtlamchi davr to'rt neogen, eopleystotsen,

pleystotsen, golotsen bosqichlariga bo'linadi. Mazkur davrda shimoliy Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning ko'p joylarini vaqti-vaqti bilan Dunay, Gyunt, Mendel, Riss va Vyuriy deb ataluvchi muzlik qoplab turgan. Lekin golotsenga kelib mazkur joylardagi muzlik erib, u yerlarning tabiati o'zgarib ketdi. Arxeologik nuqtai-nazardan neogen va eopleystotsen qadimgi tosh asrining Olduvay – (shellgacha) pleystotsen qadimgi shell, O'rta va So'nggi ashell, mustye va so'nggi paleolit davrlariga to'g'ri keladi. Golotsen esa, mezolit va neolit asrlariga mos tushadi. Kishilikning ibtidoiy bosqichini to'g'ri davrlashtirish uchun arxeologiya, geologiya, klimatologiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarni joriy qilish, ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab-chiqarish kuchlarini to'laroq o'rganish uchun imkon beradi. XIX asrda qator olimlar jamiyat tarixini davrlashtirishga intilib ko'rdilar.

Ulardan biri Shved olimi Nilson bo'lib, u jamiyat tarixini yovvoyilik, ko'chmanchilik, dehqonchilik va madaniylashgan bosqichga ajratadi. L.G.Morgan ibtidoiy jamiyat tarixini yovvoyilik, varvarlik davrlariga bo'lar ekan. Bu 2 davrning har birini, tirikchilik vositalarini, ishlab-chiqarish sohasidagi muvaffaqiyatlarga quyi, o'rta, yuqori bosqichlarga bo'ladi. Morganning fikricha, yovvoyilikning quyi bosqichida insoniyat shakllandi. “Odamlar yirtqich hayvonlar orasida yashab yovvoyi mevalar, yong'oqlar va ildizlarni ovqat sifatida iste'mol qilganlar. Bu davrning eng muhim yutug'i ma'noli nutqning vujudga kelishidir” – deydi Morgan.

Yovvoyilikning yuqori bosqichi esa, o'q-yoyning kashf qilinishi bilan mashhurdir. Varvarlikning quyi bosqichida kulolchilik joriy qilingan bo'lsa, o'rta bosqichda hayvonlar qo'lga o'rgatilib, xonakilashtirildi, sug'orma dehqonchilik vujudga keldi. Yuqori bosqichi esa, temir rudasini eritish bilan boshlanadi. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya, lingvistika, xalq og'zaki ijodiyoti va boshqa fanlarning 100

yildan ko'proq vaqt ichida qo'lga kiritgan yangiliklar Morganning davrlashtirishida kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Keyingi davrdagi arxeologik kashfiyotlar ibtidoiy kishilar olovdan Morgan faraz qilgan vaqtda ilgaliroq foydalanganliklarini isbotlab berdi.

Demak, XIX asrning 2-yarmida zaruriy dalillarning yo'qligi tufayli Morgan va boshqalar ibtidoiy jamiyat tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli darajada baho bera olmadilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumini ijtimoiy munosabatlar jihatidan 2 bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb biladilar. Ulardan 1. ibtidoiy gala, to'da, 2. urug'chilik jamoasi bosqichi. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi mazkur jamiyatni 3 bosqichga bo'ladilar. Ular kishilikning ibtidoiy to'da, urug'chilik jamoasi va ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrlaridir.

Ibtidoiy to'da ibtidoiy jamiyat tarixi rivojlanishining eng dastlabki bosqichini tashkil etadi. Bu davrda eng dastlabki inson vujudga keldi, uning qo'li bilan esa dastlabki tosh qurolar yasaladi. Odam o'zining hayvon ajdodidan birgalashib mehnat qilishlari, sodda bo'lsa ham mehnat qurollari yasashda binobarin madaniyatga asos solishga o'zlarining hayvon ajdodlaridan tubdan farq qilib, ulardan uzoqlashib ketgan edilar. Ular gala-gala bo'lib yashar edilar. U davr kishilari bir-biri bilan mustahkam bog'langan edilar. Galasi soni 25-30 kishi bo'lib, tez-tez o'zgarib turardi. Arxeologik jihatdan bu davr ilk tosh davriga mansub juda uzoq davom etgan. Morgan bu davrni yovvoyilikni quyi bosqichga kiritadi. Ibtidoiy jamoa tarixining 2-bosqichini ibtidoiy urug'chilik jamoasi bo'lib, inson ongining rivojlana borishi ishlab-chiqarish kuchlari taraqqiyotining olg'a qarab siljishi bilan boshlanadi. Morganning fan oldindagi buyuk xizmati shundaki, u o'zining qadimgi jamiyat asarida birinchi bo'lib, dastlabki sinfiy jamiyatga qadar bo'lgan jamiyatning ilk va asosiy kurtagi urug' ekanligini ta'kidlaydi. "U urug'ning paydo bo'lishi, odamning paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'ladi. balki urug'chilik jamoasi kishilik jamiyati tarixining ma'lum bir bosqichidir" - degan edi. Morgan birinchi sinfiy jamiyatga qadar bo'lgan davrini bir-biri bilan teng bo'lmagan 2 bosqichga bo'ladi. Bular ibtidoiy to'da va urug'chilik jamoasi.

Kishilikning ibtidoiy to'da va urug'chilik bosqichlari o'rtasida chuqur sifat chegarasi bor. Bu sifat chegara eng qadimgi ajdodlarimizning hayvonot olamidan chiqib ongli, aqlli zot dunyosiga o'tishi bilan tavsiflanadi. Ibtidoiy to'da davrida odamlar o'rtasida jismoniy aloqalar chegaralanmagan. Aniq tartibga tushmagan. Odamlar yirtqich hayvonlardan qo'rqqanidan gala-gala, to'da-to'da bo'lib yashagan. Ov vaqtida ular yolg'iz hayvonga ko'pchilik bo'lib hujum qilishgan.

Ibtidoiy urug'chilik bosqichida inson hayotida juda katta sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu davrda kishilikning ilk jamoasi dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtagi paydo bo'ladi. bu kurtak urug' jamoasining tartib topishiga asos solgan onlar atrofida yuz berdi. Shuning uchun ham bu bosqich matriarxat – ona urug'i deyiladi. Ona urug'i jamoasining boshlanishi bu birinchi ijtimoiy – iqtisodiy formastikaning boshlanishi edi. Urug'chilik jamoasi davrini 2 ta bosqichga bo'lish mumkin. Uning birinchilari bosqichi urug'chining ilk bosqichi, ikkinchisi esa urug'chilik bosqichidir. Urug'chilik bosqichidan 1-cinfiy jamiyatga o'tish davri ham bor. Bu o'tish davrini Morgan “Xarbiy demokratiya” bosqichi deb atadi. Morganning bu tarifini English qabul qilingan edi. Agar urug'chilikning ilk bisqichi ona urug'i davriga to'g'ri kelsa, ibtidoiy jamiyat tizimining urig'chilik va xarbiy demoratiya bosqichla r iota urug'i patriarxat davriga to'g'ri keladi. Ibtidoiy jamoa tizimining matrixat davrida Nikoh guruhli ikki urug' a'zolari o'rtasida ikki jamoa o'rtasida ikkita ishlab-chiqarish jamoasi a'zolari o'rtasida sodir bo'lgan.

Urug'chilikning 2-bosqichida ibtidoiy jamoa xo'jaligida qo'shimcha daromad paydo bo'ldi. U esa o'z navbatida mol ayir boshlashini keltirib chiqaradi. Ana shu davrdan boshlab, urug'chilikning qabilalariga birlashishi boshlanadi. Qabilalararo iqtisodiy aloqalar vujudga keladi. Guruhli Nikoh doirasida ayollar farzandlarining atrofidan o'z urug'i uchun ishlab berishini o'z urug'i yumushlariga yordam berishini talab

qiladilar. Bu talablar iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, ona urug'i jamoasida juft oilaning shakllanishiga olib keldi. Ona o'z farzandlariga o'z otasini tanishtira bordi. Uzoq davom etgan bu nikoh aloqa normalari ona urug'i doirasida erkaklar rolining kuchyishiga olib keldi. Iqtisodiy hayot tashvishlari endi erlar qo'lida jamlandi. Shunday qilib ota urug'i- patriarxat shakllanadi. Jamoada erkaklar rolining kuchyishi qonuniy ravishda juft oilani keltirib chiqaradi. Ilk urug'chilik jamoasi davrida odamzod birinchi bor amaliy san'atni kashf etdi. Qadimgi haykaltaroshlar o'z asarlarini dastlab ayol haykallarini ishlashdan boshlaganlar. Ayollarning haykallari dastlab mammont suyagidan, toshdan yasalgan. Odatda ular homilador ona tasvirida ishlangan. Bu davrning boshqa bir buyuk hislati odamzotning biologik jismoniy tuzilishida ro'y berdi. Odamzodga xos 3 ta irqqa bo'linish sodir bo'ldi. Ya'ni Ovro'pa negir va mo'g'ul irq-lari shakllanadi va nihoyat eng qadimgi ajdodlarimiz g'orlardan chiqib, ma'lum bir joylarda o'zlari uchun kulba yashash yo'llarini topdilar. Ibtidoiy ajdodlarimiz g'arbdab chiqib ma'lum bir joylarda o'zlari uchun kulba yasash yo'llarini topdilar. Ibtidoiy ajdodlarimiz hayotidagi inqilobiy o'zgarishlar miloddan avvalgi 40-30 ming yilliklar davomida sodir bo'ldi. Ishlab-chiqarish kuchlarining yuksalishi natijasida kishilik jamiyatining ancha barqaror tashkiloti – urug'chilik jamoasi vujudga keladi.

Ibtidoiy urug'chilik jamoasi davri ibtidoiy jamoa tizimi shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotning asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu arxeologik jihatining so'nggi o'rta va yangi tosh davrlariga to'g'ri kelib, Morganning tarixi bo'yicha yovvoyilikning o'rta va yuqori varvarlikning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi. Ibtidoiy jamiyat tarixining 3-bosqichi mazkur bolib tosh qurollar ornini metallar egallashi munosabati bilan ishlab chiqarish kuchlari yanada yuksaladi. Mazkur bosqichda xo'jalik tarmoq-borining hamda

sohalarida yuksalish bo'lib ortiqcha mahsulot to'planadi. Jamg'arilgan boyliklar hisobiga esa, talonchilik urushlari keng yoyiladi.

Ishlab – chiqarish kuchlarining rivojlana borishi me hnatning birinchi va uchinchi taqsimoti va boshqa qator sabablar katta o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Bu hol oqibat natijasida ibtidoiy tizimining inqiroziga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Bu jarayon patriarxat jamiyatining asosiy negizini tashkil etgan katta oillarga ta'sir etib, ular kichik-kichik mustaqil oila bo'li, ajralib chiqq boshladilar. Mustaqil xo'jalik yurita boshladilar. Katta patriarxat oilalarining mayda oilalarga bo'linib ketishi xo'jalik jihatining mustaqillikka, erkinlikka intilishlari xususiy mulkning vujudga kelishi uchun zamin xozirlanadi va oqibat natijada uni vujudga keltiradi.

Xususiy mulkning vujudga kelishi masalasi ibtidoiy jamiyat umuman boshriyat tarixi bilan shug'ulluvchi barcha olimlar oldida turgan eng muhim masalalarning briridir. Xususiy mulkning kelib chiqishi masalasida reaksion burjua olimlari "Nazariya" larni ilgari suradilar. Ularning fikricha xususiy mulk azaliy va tabiiy emish. Ular qoloq qobiliyatlardagi ba'zi shaxsiy buyum, yog'och va turli – tuman obezaklarni xususiy mulk deb biladilar. Burjua fani shaxsiy mulk bilan xususiy mulkning negizida qo'shimcha mahsulot yotadi.

Eng avval qaysi narsalar, nimalar xususiy mulkka aylangan degan masalan olimlarni qiziqtirdi. Bu masalada hali olimlarning fikr – mulohazalari bir xil emas. Ba'zilar chorvani eng dastlabki xususiy mulk desalar, boshqa yerni va bo'lak narsalarni eng dastlabki xususiy mulk bo'lgan deydi. Shuni aytish kerakki, qayerda xo'jalikning qaysi tarmog'i rivojlangan bo'lsa, mazkur xo'jalik yetishtirgan mahsulot shu joyda xususiy mulkning ramzi bo'ladi. Chorvachilik rivojlangan joylarda chorva mollarning dastlab xususiy mulkka aylanganligi shak-shubxasiz hazizdir. Xo'jalikning asosini dehqonchilik, bog'dorchilik tashkil etar ekan. Demak, u joylarda yer xususiy mulkning manbai

bo'lib qolgan. Demak, ibtidoiy jamoa tizimi davridagi yirik patriarxat oilalar qatori yemirilib, uning o'rniga kichik oilalar maydonga keldi. Ishlab-chiqarishning rivojlanishi natijasida kichik oila jamiyatining asosiy xo'jalik va ijtimoiy tashkilotga aylanadi. Ma'lum mulk chorva, yer va boshqa narsalar kichik oilalar ixtiyoridagi xususiy mulkka aylanadi. Oila boshlig'i esa oila ixtiyoridagi er, suv o'z xotini, bolalari ustidan ayni vaqtda ularni mehnati ustidan cheksiz huquqqa ega bo'lgan hukmron shaxsga aylandi. Shunday qilib xususiy mulkchilik kelib chiqdi.

Shu tariqa qon-qarindosh urug'chiligi buzilib qo'shni jamoalar paydo bo'ladi.

Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bu jamoasi chorvadorlarda esa ko'chmanchilar jamoasi nomini oladi. Qishloq jamoasi ibtidoiy jamoa tuzumining eng so'nggi bosqichi hisoblanadi. Qishloq jamoasi dualizim ikki tomonlama harakterga ega edi. Bu ikki yoqlik qishloq jamoasida ayni bir vaqtning o'zida ham xususiy ijtimoiy mulkning mavjud ekanligi bilan hahrakterlanadi. Yerni yakka-yakka ishlab undan hosilni xususiy o'zlashtirish hayvonlar qishloq xo'jaligi buyumlari gullar, uy va uning qo'shim cha qismi hovli xususiy mulk hisoblanib, ekiladigan yer, o'tzorlar, o'tloq, yaylovlar, o'rmonlar, tog'-u toshlar va suvlar umumiy mulk hammaga tegishli bo'lgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarga bo'linar ekan.mazkur davrda sodir bo'lgan voqea va xodisalarni qachon, qaysi vaqitda bo'lganligini aniqlash ibtidoiy jamiyat tarixi fani oldidan turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan kavlab olingan moddiy buyumlarning nisbiy yoki absalyut-haqiqiy aniq sanasi aniqlanmas ekan, mazkur moddiy buyumlar o'tmishini o'rganishning hag'ig'iy tarixiy manbasi bo'la olmaydi, balki arzimas, tashlandiq narsaga aylanib qoladi.

Tarix fanida, xusuan ibtidoiy jamiyat tarixi fanida davrni aniqlash, sanasini belgilab olish juda murakkab bo'lib, uning xilma-xil usullari mavjud.

Moddiy va madaniy buyumlarni sanasini aniqlashda arxeologiya, geologiya, poleontologiya, fizika, ximiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlar asos qilib olinadi.

So'nggi yillar ichida olimlar ibtidoiy jamiyat tarixining nisbiy va mutloq sanasini aniqlashning yangi usullari kashf etilib sinab ko'rildi. Geoxranologiya, radiometrik,. Radiouglerod, dendroxronologiya, arxeomagnit, kaliy-argon va boshqa usullar shular jumlasidandir.

Mazkur usullarni qo'llash natijasida ibtidoiy jamiyat tarixining davrini aniqlash va sanasini belgilashda ancha yaxshi natijalarga erishilda.

Arxeologik yodgorliklardan topilgan daraxt, ko'mir va suyaklarning sanasini aniqlashda radiouglerod metodidan keng foydalanilmoqda. Tadqiqotlar natijasida azot atomlariga,. Kosmik nurlarning ta'siri ostida atmosferasida atom og'irligi 14 (S14-

karbonat¹⁴) bo'lgan uglerodning radioaktiv izotopi muttasil ravishda to'plana borishi kuzatilgan.

Atmosferadan esa uni o'simliklar yutadi, o'simliklar va nafas organlari orqali hayvonlar organizmiga singadi. hayvon va o'simliklar xalok bo'lar ekan, S^{14} ham emirila boradi. Karbon¹⁴ning yarim emirilishi 5500-6000 yilga teng. Demak karbon¹⁴ning emirilish darajasi bilib olingach, o'simlik va hayvonning yashagan vaqti ravshan bo'ladi. Keyingi vaqtda arxeologik va antropologik yodgorliklarning sanasini aniqlashda kaliy-argon (K^{40} - Ar^{40}) usuli ham keng qo'llanilmoqda. Kaliy-organ usuli yordami bilan tarkibida kaliy bo'lgan vulqon madanlarining yoshini aniqlash mumkin.

Arxeologik yodgorliklardan topilgan sopol buyumlarni vaqt-sanasini aniqlashda arxeomagniy usuli ijobiy natijalarni bermoqda.

Olimlarning mulohazalariga ko'ra sopoldan yasalgan buyumlarga erning magniy maydoni ta'sir etib, u sopolda uzoq vaqt o'zgarmagan holda saqlanib qoladi.

Sopol buyumlarni magnitlanish darajasiga ko'ra, Erning magniy maydoni chiziqlari tortiladi. Shunga qarab qadimiy sopol idishlar, sopoldan yasalgan boshqa buyumlarning sanasi aniqlanadi. Mazkur usul erdan kavlanib olingan sopol buyumlarning sanasini 25 yil xato bilan belgilab berishi mumkin.

Sanani aniqlashning yana bir usuli-dendroxronologik usuldir. Bu usul yordami bilan arxeologik yodgorliklarning madaniy g'atamlaridan topilgan daraxtlarning yillik xalqalriga qarab, uning kesilgan vaqtini bir yilgacha aniqlida bilib olish mumkin.

Demak moddiy-madaniy buyumlarning yoshini aniqlashda xilma-xil usullar mavjud ekan, sharoitga qarab mazkur usullarning ko'pchiligidan foydalanish o'ylangan natijalarga erishish imkonini beradi.

Demak, ibtidoiy jamiyat tarixini muayyan darvlarga bo'lish va ular sanasini aniqlash mazkur fan uchun juda katta amaliy ahamiyatga egadir.

X U L O S A

Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo`lib o`rganishning ahamiyati.

Jamiyat ma`naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat, hamda an`analar va muqaddas dinimizni o`rni va ahamiyati katta. Biron bir xalq o`z tarixini bilmay, asrlar osha ma`naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o`z kelajagini tasavvur eta olmaydi.

O`zbekiston xalqi va o`zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini holisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yilning iyun oyida bo`lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulida qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida” gi qarorida belgilab berildi.

Ajdodlarimiz hayotini, tarixiy jarayonlarini tahlil qilish, yoritish o`rganishda Vatan manfaati nuqtai nazardan yondashish, milliy istiqlol g`oyasi tamoyillariga tayanmoq lozim. Vatanimiz tarixini organishda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma`ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qabul

qilingan va boshqa me`yoriy hujjatlar muhim nazariy-metodologik asos bo`lib xizmat qiladi.

Tarixni o`rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik tamoyillar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlarni o`tkazish, statistik matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur

Ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etish, o`rganish uni to`g`ri davirlashtirishning ahamiyati katta.

Tarixni davirlashtirishdek muhim masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Ko`pgina arxeolog olimlar mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligini asos qilib olib, insoniyat tarixini qadimgi tosh, o`rta tosh, yangi tosh, tosh – mis, bro`nza, temir davrlariga bo`lganlar. Bunday yondashuv to`g`ridek ko`rinsada, kishilik jamiyati taraqqiyotining bir-biridan farq qiluvchi muhim davrlarni begilashga yetarli darajada asos bo`lolmaydi.

Amerikalik tarixchi olim L.G. Morgan tarixni 3-davrga

1. Yovvoyilik
2. Varvarlik
3. Sivilizatsiya davrlariga bo`ladi.

Ibtidoiy jamiyat tarixi insoniyatning paydo bo`lganidan to davlatning paydo bo`lishigacha bo`lgan katta davirni o`z ichiga oladi. Bu davrni davrlarga bo`lmay turib mukammal o`rganish mumkin

emas. Shuning uchun olimlar ibtidoiy jamiyatni arxealogik, antropalogik va ijtimoiy munosabatlarga qarab davrlarga bo'lganlar.

Yosh avlodga ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lmay turib o'rgatish befoyda, ularga insoniyat tarixini har tamonlama tushunarli qilib o'rgatish zarurligi asnosida ibtidoiy jamiyat tarixining o'rne beqiyos. Jahon tarixida eng muammo va baxslarga to'la bo'limi bu ibtidoiy jamiyat tarixi bo'limi.

Bu davirni dunyoda birinchi bo'lib Svel Nilson davrlashtirgan. Biz talabalar ham ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishga harakat qilyapmiz. O'zbekiston ham dunyoda odam paydo bo'lgan eng qadimiy hududlardan biri.

Farg'ona viloyati Selung'ur g'oridan o'rta paleolitga mansub fergantrop odamning topilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xulosa shuki biz ibtidoiy jamiyat tarixida vatanimizning ham o'rne bor deb faxrlansak bo'ladi. Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lib o'rganish biz yoshlarni tarix soxasini mukammal o'rganishimizda juda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T.1998 y.**
- 2. Kabirov A. “Ibtidoiy jamiyat tarixi”. Ma’ruzalar matni . –T. 2001y.**
- 3. Kosven M.O. “Ibtidoiy jamoa tarixidan ocherklar”. T. 1960.**
- 4. Alekseyev V.P. Pershits A.I. “Istoriya pervobitnogo obshestvo”. M. 1990 g.**
- 5. Boriskovskiy P.I. “Derevneshiye proshloe chelovechestvo “M.L. 1957.**
- 6. A.Asqarov. “O’zbekiston tarixi”. –T. 1994.**
- 7. Q.Usmonov., M.Sodiqov , S.Burxonova. “O’zbekiston tarixi”. –T. 2006.**
- 8. Krushkol YU. “Qadimgi dunyo tarixi”. 1976.**

MUNDARIJA

I. KIRISH

Ibtidoiy jamiyat tarixi. 2

II. ASOSIY QISM

*1. Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish
masalasi.. . . .* 7

*2. Ibtidoiy jamiyat tarixini ijtimoiy
munosabatlarga qarab davrlashtirish.. .* 16

*3. Ibtidoiy jamiyat tarixini, sanasini aniqlash
usullari.. . . .* 21

III.XULOSA

*Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lib
o'rganishning ahamiyati.. . . .* 24.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR. 27